

SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI



2025

8-JILD
6-SON
13-IYUN



«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

**“SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI”
ILMIY-USLUBIY JURNALI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

13-Iyun, 2025-YIL

8-JILD 6-SON

O‘ZBEKISTON

2025

Ushbu to'plamda "So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi" ilmiy-uslubiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan. Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir:

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul muharrir:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

Texnik xodim:

Xasanov Tursunali Xaydarali o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sabirova Gulnoza Sadikovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov Ixtiyor Muzropovich

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadambayeva Hilola Batirovna

*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari
nomzodi, Dotsent*

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baltayeva Ikbal Tadjibayevna

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

Sayfullayeva Ra'noxon Raupovna

O'zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Popova Tatyana Igorevna

SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya. Doctor filologicheskix nauk, professor.

Berdaliev Abduvali

Tojikiston. Xo'jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Manzuraxon Ernazarova

Navoi davlat pedagogika instituti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Uluqov Nosirlon Muxammadalievich

Namangan davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Jumanazarova Guljahon

Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.

A.A.Qosimov

Farg'ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich

Filologiya fanlari doktori. Farg'ona davlat universiteti.

Fayzimatov Shuxratjon No'monovich

Farg'ona politexnika instituti. Texnika fanlari doktori.

Hoshimov G'anijon Mirzaaxmadovich

Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Hulkar Hamroyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O'zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a'zosi, jurnalist.

O'rinboyev No'monjon O'rmonovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO`

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg'ona davlat universiteti.

Qunduzxon Atabayevna

Filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston. Jahon tillari universiteti.

Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Erofeeva Inna Nikolaevna

Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.

Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg'ona davlat universiteti.

G.O.Abdugafurovich

Filologiya fanlari nomzodi. Farg'ona davlat universiteti.

Xudayarov Oybek Odilovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Muxitdinova Muniraxon

Pedagogika fanlari fanlari doktori, (PhD)

TOPIK II IMTIHONINING YOZMA BO'LIMIDA YUQORI NATIJALARGA ERISHISHGA TO'SQINLIK QILUVCHI OMILLAR: TAHLIL VA YECHIMLAR

Sobirova Mohijahonbegim Sarvarmurodxo'ja qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
instituti Koreyashunoslik oliy maktabi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda ommalashib borayotgan koreys tili sohasi bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, shuningdek, TOPIK II imtihonida, xususan “쓰기” (yozish) bo'limidagi 54-savol turida, abituriyentlarning yuqori natijalarga erisha olmasligiga sabab bo'luvchi omillar tahlil qilingan. Mazkur masalalar “afzalliklar, kamchiliklar va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari” insho qolipi asosida yoritishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *Yuqori darajadagi til sertifikat, B2 daraja, C1 daraja, Topik II imtihoni, insho matni, qoliplar, 장점, 단점, 해결 방법 (afzal va kamchilik tamonlari hamda muammoni yechish uslubi)*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются важные аспекты подготовки высококвалифицированных специалистов в стремительно развивающейся сфере корейского языка. Также проводится анализ основных причин, препятствующих достижению высоких результатов абитуриентами на экзамене TOPIK II, в частности в задании 54 раздела “쓰기” (письмо). Указанные вопросы освещаются в форме эссе по структуре “достоинства, недостатки и пути их устранения”.*

Ключевые слова: *Продвинутый языковой сертификат, уровень B2, уровень C1, экзамен по теме II, текст эссе, шаблоны, 장점, 단점, 해결 방법 (преимущества и недостатки и стиль решения проблем)*

Annotation: *This article discusses aspects that are important in the preparation of high-level personnel in the field of the currently popular Korean language and what factors prevent you from getting a high result in the TOPIK II exam. An attempt was made to explain this using the “advantage, disadvantage, and remedy” template in an essay designed for question type 54 in the “쓰기” (writing) section.*

Keywords: *Advanced language certificate, B2 level, C1 level, Topic II exam, essay text, templates, 장점, 단점, 해결 방법 (advantages and disadvantages and problem solving style)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan

yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" [4, 1b.]gi PQ-5117-son qarorining 5-bandiga muvofiq C1 darajadagi o'qituvchilarning oylik maoshiga 50 foiz ustama qo'shib berish, hamda shu qarorning 6-bandida magistraturaga kirish imtihonlarida filologiya yo'nalishlari bo'yicha C1 darajadagi sertifikat, nofilologik yo'nalishlarda esa B2 darajadagi sertifikat talab etilishi belgilangan [5, 1b.]. Bu qaror ham pedagogni ham talabani rag'batlantiruvchi qaror bo'libgina qolmay ikki guruh vakillariga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Bu qarorning asl maqsadi shundaki, kelajak avlodga bilim berayotgan pedagoglarning ilmiy salohiyatini yanada oshirish hamda kelajak avlod vakillari orasida o'z ishini ustasi bo'lgan yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirib chiqarishdir. Albatta bu nafaqat O'zbekistonning ichki rivojiga balki, boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalariga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Zero, til darajasi yuqori bo'lgan kadrlar o'zidan keyingi avlodni ham yuqori bilim darajasiga ega, dunyo qarashi keng, dunyo arenasida ham o'z o'rniga ega bo'la oladigan kadr qilib tarbiyalashga katta xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan qaror tufayli 2022- o'quv yilida ko'pchilik til ustozlari qo'shimcha ustamaga ega bo'lib, bakalavriatni tamomlagan talabalar magistraturada o'qish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Ammo, bir guruh bitiruvchi talabalar til bilish sertifikatini mavjud bo'lmaganligi sababli bunday imkoniyatni qo'ldan boy berdilar. O'z o'zidan shu yerda savol tug'iladi. Til bilish darajasini ko'rsatuvchi B2, C1 sertifikatlarini olish shu darajada qiyinmi?

Bu savolga javobni koreys tili misolida ko'radigan bo'lsak, koreys tilini bilish imtihonida (TOPIK II) yuqori darajani qo'lga kiritish uchun imtihon topshiruvchidan uch bosqichdagi imtihon bo'limlaridan o'tish talab qilinadi. Bulardan:

- Eshitish (듣기)
- Yozish (쓰기)
- O'qish (읽기)

Yuqoridagi bo'limlar orasidan B2 hamda C1 darajani olishda to'sqinlik qiladigan omillardan eng kattasi bu imtihonning ikkinchi qismi bo'lgan, "Yozish" (쓰기) bo'limidir. Nega ko'p holatlarda aynan yozish bo'limi yuqori daraja olishga to'sqinlik qilishini anglash yuzasidan bu mazvuda bir qancha koreys tilshunoslari o'z doktorlik hamda dissertatsiya ishlarini olib borishgan.

Ular ko'p holatda yozish imtihonidagi gaplarning tuzilishi, imtihonda ball berish qonun qoidasi, gaplarning bir biriga bog'liqlik jihatlarini tadqiq qilishgan. Tadqiqotchilarga yorqin misol qilib, Kim In I (김은희), Chang Su (장수), Kim Von Kyong (김원경), Kim Xyon Jin (김현진)larni keltirsak bo'ladi. Ular orasida Kim In I yozish bo'limini boshlang'ich, o'rta va yuqori darajaga bo'lib, ularga oid gaplarning tuzilishi hamda ularni baholash mezonini tadqiq qilgan bo'lsa, Chang Su TOPIK II

imtihoniga oid kitoblardan imtihon topshiruvchilarning insho matnlarini yig'ib olib, ularda qanday xatolarga yo'l qo'yilgani, so'z va grammatikalardan foydalanishdagi kamchiliklar hamda bu xato, kamchiliklarni bartaraf etish usulini tadqiq qilgan.

Imtihon yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlarning birida TOPIK II 35-imtihonidan 55-imtihonigacha bo'lgan umumiy natijalar yig'ib olingan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, imtihonning eng qiyin hamda ball past chiqadigan bo'limi, bu yozish bo'limi bo'lib, umumiy o'rtacha ball 34.34 [1, 2b.] ni tashkil etgan. Vaholanki, yozish bo'limidagi eng yuqori ball, 100 ball bo'lib, bu bo'limda mavjud bo'lgan 51 va 52-savollariga 10 ball, 53-savoliga 30 ball, 54-savoliga ya'ni katta inshoga esa 50 ball beriladi. Ko'pchilik ball yo'qotadigan savol turi ham aynan shu 54-savol turidir.

54-savol turi o'zining hajmi va ma'no jihatdan yuqori darajadagi insho matnini talab qilgani bois imtihon topshiruvchilarda qorquv paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Paydo bo'lgan qorquv sababli ham, imtihon topshiruvchi imtihonga kirgan paytda har safar bir hil xatolarga yo'l qo'yadi. "Yozish" bo'limining 54-savol turini yozish vaqtida imtihon topshiruvchilarning eng ko'p xato qiladigan jihatlari – bu:

- to'g'iri yozish qoidalariga amal qilmaslik;
- kerakli kalit so'zlardan foydalanmaslik;
- inshoda faqat o'z fikrini bildirishga harakat qilib, inshoning tuzilishiga e'tibor bermaslik;
- inshoning asosiy qismiga ko'p vaqt ajratib, kirish va xulosa qismini tugallamaslik;
- vaqt kam bo'lgani sababli, sarosimaga tushib nima yozishi kerak ekanligini unutish;
- yuqori darajadagi grammatikalarni tanlab, ularni keraksiz joyda qo'llab xato qilish;

Yuqorida biz sanab o'tgan barcha omillarni imtihon topshirishdan avval tayyorlanib bartaraf etish mumkin. Ammo, shu yerda ham bizning xatolarimizdan biri yuqori daraja olish uchun faqatgina yuqori darajadagi so'zlar hamda grammatikadan foydalanish kerak, insho mavzusi bo'yicha fikrimiz qay darajada chuqur ekanligini ko'rsatib berishimiz kerak deb o'ylashimizdadir. Yuqori darajadagi so'z va grammatikalardan foydalanamiz, ammo, ularni ma'lum bir konstruksiyaga solmaganimiz sababli, jumlamizda mujmallik vujudga keladi. O'z fikrlarimizni bildiramiz, ammo, ma'lum bir qonun qoidaga rioya qilib fikrimizni yozmaganimiz sababli, fikrda ham mujmallik paydo bo'ladi. Va, insho yuqori darajadagi so'z, grammatika, fikrlar bilan bezalgan, biroq, hech qanday konstruksiyaga ega bo'lmagan chalkash holga kelib qoladi.

Bu muammolarni bartaraf etishda ma'lum bir yuqori darajadagi so'z, so'z birikmalari va grammatikalardan tashkil topgan gap qoliplari borki, kitoblardan foydalanib bilim olgan bilimdon ularni tez farqlaydi. Ammo shu bilan birga bilim

oluvchining bu qoliplarni to'liq va sifatli tushunishi uchun pedagog yordami ham kerak bo'ladi. Quyida qanday gap qoliplar bor ekanligini ko'rib o'tsak:

- 찬성과 반대 [3, 64b.] (rozilik hamda norozilik)
- 장점, 단점, 해결 방법 [3, 52b.] (afzal va kamchilik tamonlari hamda muammoni yechish uslubi)
- 이유 (원인) [3, 66b.] (sabab)
- 필요성 (keraklilik jihati)

Sanab o'tilgan yuqoridagi yuqori darajadagi gap qoliplar ko'p bor 54-savol turidagi inshoning tuzilishi bo'lib kelgan. Ya'ni 54-savol turidagi savollarga mana shu qoliplarni bilgan holda onsonroq javob topish mumkindir. Ammo, ko'pchilik imtihon topshiruvchilarning kamchiligi shundaki, ular bu qoliplar borligi haqida ummuman ma'lumotga ega emas. Shu sababli ham, ularning ballari C1 yoki C2 ya'ni 5,6 gipga yetmaydi. Quyida 장점, 단점, 해결 방법 (afzal va kamchilik tamonlari hamda muammoni yechish uslubi) qolipini ko'rib chiqsak.

54-savol turiga insho yozishning asosiy qoidalari:

- Insho matnida kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo'lishi darkor [2, 66b.];
- Insho 600-700 bo'g'in oralig'idagi matndan tashkil topishi kerak;
- Inshoda yuqori darajadagi so'z, so'z birikmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq;
- Inshoda fikr aniq hamda asoslangan bo'lishi kerak.

Yuqoridagi asosiy qoidalarni barchasini 장점, 단점, 해결 방법 (afzal va kamchilik tamonlari hamda muammoni yechish uslubi) qolipi o'zida aks ettirgan bo'lib, u quyidagicha tuzilgan.

Kirish qismi: (서론)

- (주제)는 (주제 설명) 하는 것이다. (mavzu)... (mavzuning ifodasi) deganidir.

Misol uchun: 인터넷 실명제란 실명으로 인터넷 활동을 하는 것이다 [2, 357b.].
(Internetning o'z nomi tizimi asl ism bilan internetda foaliyat olib borish deganidir.)

현대 사회에서 (주제 이름)은/는 우리와 떼려야 뗄 수 없는 생활의 일부분이 되었다. Zamonaviy jamiyatda (mavzu nomi) hayotimizning ajralmas bir qismiga aylandi.

Misol uchun: 현대 사회에서 비대면 수업은 우리와 떼려야 뗄 수 없는 생활의 일부분이 되었다. (Zamonaviy jamiyatda masofaviy ta'lim hayotimizning ajralmas bir qismiga aylandi.)

따라서 이 글을 통해 (주제)에 대해 살펴보고자 한다. Shunga ko'ra, bu matn orqali (mavzu) haqida sinchiklab o'rganmoqchimiz.

Misol uchun: 따라서 이 글을 통해 환경 오염을 줄이기 위한 효과적인 방법에 대해 살펴보고자 한다 [2, 122b.]. (Shunga ko'ra, bu matn orqali atrof muhit ifloslanishi haqida sinchiklab o'rganmoqchimiz.)

Kirish qismi bir xatboshidan tashkil topadi. U uch yoki to'rt gapdan shakllantirilgan bo'lishi darkor.

Kirish qismiga mo'ljallangan bu uch konstruksiya orqali biz, 54-savol turida tushgan mavzuning asl ma'nosi nima ekanligini, u bizning hayotimiz bilan uzviy bog'liq hodisa ekanligini, shu sababli ham biz uni inshoimizda yoritib bermoqchi ekanligimiz haqida ma'lumot beramiz.

Asosiy qism: (본문)

Birinchi xatboshi:

현재 우리 생활에서 유행하고 있는 (주제)은/는 장점도 있고 단점도 있다. Hozirgi kunda bizning jamiyatimizda mashhur bo'lib borayotgan (mavzu nomi)ning afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud.

Misol uchun: 현재 우리 생활에서 유행하고 있는 대중매체는 장점도 있고 단점도 있다. Hozirgi kunda bizning jamiyatimizda mashhur bo'lib borayotgan ommaviy axborot vositalarining afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud.

(주제)의 장점은 의외로 많다. (Mavzu) ning afzallik tamonlari hayratlanarli darajada ko'p.

Misol uchun: 비대면 수업의 장점은 의외로 많다. Masofaviy ta'limning afzallik tamonlari hayratlanarli darajada ko'p.

우선 (이유)을 수 있다는 것이 최대의 장점이다. Birinchi navbatda, (sabab)ni qila olishi eng katta afzal tamonidir.

Misol uchun: 우선 시간을 아낄 수 있다는 것이 최대의 장점이다. Birinchi navbatda, vaqtni tejay olishi eng katta afzal tamonidir.

다음으로 (이유)을 수 있다는 것도 (주제)의 장점이 된다. Keyingi, (sabab)ni qila olishi ham (mavzu)ning afzallik tamoni bo'ladi.

Misol uchun: 다음으로 교통비를 아낄 수 있다는 것도 비대면 수업의 장점이 된다. Navbatdagisi, yo'lga ketadigan mablag'ni tejay olishi ham masofaviy ta'limning afzallik tamoni bo'ladi.

Ikkinchi xatboshi:

그러나 모든 것에 일장일단이 있듯 (주제)도 마찬가지다. Ammo barcha narsaning bir afzal bir kamchilik tamoni bo'lgani kabi, (mavzu) ham shundaydir.

Misol uchun: 그러나 모든 것에 일장일단이 있듯 과학도 마찬가지다 [3, 52b.]. Ammo barcha narsaning bir afzal bir kamchilik tamoni bo'lgani kabi, fan ham shundaydir.

(주제)은/는 (이유) 을 수 있다는 것이 아쉬운 점이다. (mavzu)... (sabab)ni qila olishi achinarli tamonidir.

Misol uchun: 재택근무는 근무 시간이 많아질 수 있다는 것이 아쉬운 점이다. Uydan turib ishlashda ish vaqtining cho'zilib ketishi achinarli tamonidir.

뿐만아니라 (이유)는 것이 심각한 단점이다. Nafaqat bu, balki, (sabab)... kuchli kamchilik jihatidir.

Misol uchun: 뿐만아니라 사람들하고 직접 의사소통을 할 수 없다는 것이 심각한 단점이다. Nafaqat bu, balki, insonlar bilan ijtimoiy aloqa qila olmaslik kuchli kamchilik jihatidir.

Uchinchi xatboshi:

하지만 (주제)의 단점을 극복할 수 있는 해결책이 없는 것은 아니다. Ammo, (mavzu)ning kamchilik tamonini bartaraf qila oladigan yechim yo'q degani emas.

Misol uchun: 하지만 비대면 수업의 단점을 극복할 수 있는 해결책이 없는 것이 아니다. Ammo, masofaviy ta'limning kamchilik tamonini bartaraf qila oladigan yechim yo'q degani emas.

(해결책)는 것이 중요하다. (Yechim)...muhimdir.

Misol uchun: 개인의 취향에 맞는 다양한 정보를 제공하는 것이 중요하다. Shaxsiy didga mos tushuvchi turfa xil axborotlarni taqdim etish muhimdir.

또한 (해결책)는 것이 굉장히 좋은 방법들 중에 하나이다. Shu bilan birga, (yechim) juda ham yaxshi usullar ichida biridir.

Misol uchun: 또한 인터넷 사용을 줄이는 것이 굉장히 좋은 방법들 중에 하나이다. Shu bilan birga, internetdan foydalanishni kamaytirish ham juda yaxshi usullar ichida biridir.

Asosiy qism uch xatboshidan iborat bo'lib, birinchi xatboshida mavzuning afzal tamonlari ochib beriladi. Ikkinchi xatboshida esa mavzuning kamchilik tamonlari yoritiladi. Uchinchi xatboshida esa kamchilik tamonlarini qanday yechish uslublari mavjud ekanligi haqida yoziladi.

Xulosa qismi: (결론)

지금까지 (주제)의 긍정적, 부정적인 영향에 대해 살펴 보았다. Hozirgacha biz (mavzu)ning ijobiy va salbiy ta'sirini atroflicha ko'rib chiqdik.

Misol uchun: 지금까지 대중매체의 긍정적, 부정적인 영향에 대해 살펴 보았다 [3, 61b.]. Hozirgacha biz ommaviy axborot vositalarining ijobiy va salbiy ta'sirini atroflicha ko'rib chiqdik.

- 이러한 여러가지 해결책으로 우리는 양면성을 가진 (주제)에 발생할 수 있는 문제점을 예방할 수 있다. Shu kabi, turli xil yechimlar bilan biz ikki tamoni mavjud (mavzu)da vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf eta olishimiz mumkin.

Misol uchun: 이러한 여러가지 해결책으로 우리는 양면성을 가진 비대면 수업에 발생할 수 있는 문제점을 예방할 수 있다. Shu kabi, turli xil yechimlar bilan biz ikki tamoni mavjud masofaviy ta'limda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf eta olishimiz mumkin.

Inshoning xulosa qismi bir xatboshidan tashkil topgan bo'lib, insho davomida yozilgan barcha fikrlarni bir umumiy xulosa bilan yaxlitlab, insho yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, TOPIK II imtihonida yuqori natijani qo'lga kiritish uchun imtihonda tushuvchi savollarning tuzilishi hamda u uchun bo'ladigan javoblar qay tarzda tuzilgan bo'lishi kerak ekanligini bilish juda muhimdir. Yuqoridagi biz keltirgan 장점, 단점, 해결 방법 (afzal va kamchilik tamonlari hamda muammoni yechish uslubi) qolipiga o'xshagan qoliplar esa, imtihon topshiruvchining fikrlarini aniq qilib yozishiga hamda inshoning tuzilish jihatidan to'g'ri tuzishga yordam beradi.

Imtihonda yuqori natijaga erishish uchun nafaqat koreys tili bilimi balki, imtihon topshira olish mahorati ham muhimdir.

TOPIK II imtihoni, koreys tilidan tashqari o'rganilishi kerak bo'lgan bir ilmdir.

Imtihonning tarkibiy qismlari, o'ziga xos jihatlarini o'rganilsa, imtihon paytida kerakli so'z, so'z birikmalari hamda gapni to'g'ri, mazmunli tuzishda kerakli qoliplardan to'g'ri va samarali foydalanilsa, albatta, yuqori natijani qo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 장주천. 토픽II 쓰기 53 번 문항의 교육 내용 연구.-서울: 동국대학교,2020. - 103 쪽
2. 현빈, 최재찬. 핫토픽.-서울:한글파크,2016. – 179 쪽
3. 현빈, 최재찬. 핫토픽해설집.-서울:한글파크,2016. - 89 쪽

4. <https://lex.uz/docs/-5426736>
5. <https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/821>



SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI

ISSN: 2181-4600

Sertifikat

bilan taqdirlanadi

Sobirova Mohijahonbegim Sarvarmurodxo'ja qizi

**TOPIK II IMTIHONINING YOZMA BO'LIMIDA YUQORI
NATIJALARGA ERISHISHGA TO'SQINLIK QILUVCHI
OMILLAR: TAHLIL VA YECHIMLAR**

nomli maqolasi uchun:

8-JILD 6-SON IYUN 13,2025 YIL

13.06.2025

SANA



BOSH MUHARRIR:
U. MAQSUDOV

